IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
**Volume 22 Issue 01 IYUN 2026**

# YUSUF AMIRIY “DAHNOMA” ASARI MATNINING PRAGMATIK TAHLILI (“XALIFA HORUN AR-RASHID VA ARAB HIKOYATI” MISOLIDA)

**Muhabbat Fazliddinova**
O‘zR FA Davlat adabiyot muzeyi tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XV asr o‘zbek adabiyotining ajoyib namunasi bo‘lmish Yusuf Amiriyning “Dahnoma” asaridagi kichik epik janr hisoblangan “Hikoyat” (“Xalifa Horun ar-Rashid va arab hikoyati”) matni lisoniy-pragmatik jihatdan tahlilga tortilgan. Tadqiqotda matndagi lisoniy birliklarning muloqot jarayonidagi o‘rni, nutqiy aktlar, illokutiv maqsad, muloqot implikaturasi hamda sharqona odob prinsiplari asar qahramonlari va muallif nutqi misolida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yusuf Amiriy, “Dahnoma”, pragmatika, nutqiy akt, illokutiv maqsad, perlokutiv effekt, implikatura, muloqot odobi, matnshunoslik.

Klassik matnshunoslik an’anaviy ravishda qo‘lyozma matnlarning aniq ilmiy variantini tiklash, nusxalarni o‘zaro qiyoslash va leksik qatlamini izohlash bilan shug‘ullanib keladi. Biroq zamonaviy filologiya taraqqiyoti matnshunoslik, tilshunoslik va pragmalingvistika[1] fanlari kesishmasida yangicha tadqiqot usullarini talab etmoqda. Badiiy matnning pragmatik tahlili – asar tilining shunchaki lug‘aviy ma’nosini ochish emas, balki undagi lisoniy shaxslarning ijtimoiy statusi, so‘zlovchining yashirin niyati va ushbu nutqning tinglovchi (yoki kitobxon) ruhiyatiga ko‘rsatgan ta’sirini o‘rganishga qaratilgandir.

XV asr chig‘atoy adabiyotining iqtidorli namoyandasi Yusuf Amiriy qalamiga mansub “Dahnoma” asari o‘zining lirik va epik jihatlari uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Muallif pozitsiyasi va asar qiymatini bayon etuvchi epik hikoyat nomaning umumiy falsafiy va axloqiy yo‘nalishini belgilashda muhim pragmatik yuk tashiydi. “Xalifa Horun ar-Rashid va arab hikoyati” (hajmi 22 bayt) matni o‘zining ixcham syujeti, ammo chuqur ijtimoiy-psixologik tagma’nosi bilan lingvopragmatik tahlil uchun boy material taqdim etadi.

Hikoyat mazmuni quyidagicha: Bir sahroyi arab cho‘lda bir ko‘lmak suvni topib oladi. Uni obi zamzamga qiyoslab shosha-pisha Xalifa Horunning huzuriga boradi. Yetib kelgach, uni izzat-hurmat bilan kutib olishadi va o‘zini Xizr kabi, olib kelgan suvini “obi hayvon” – tiriklik suvi deb o‘ylaydilar. Horun arabning so‘zlarini eshitib, mamnuniyat bilan xizmatkorlariga: “bu odamning idishiga to‘ldirib pul beringlar”, deb buyuradi. O‘sha arab bu yerdan Dajla daryosi oqib o‘tishini bilmasdi. Agar Horun buni aytsa, u uyatga qolar edi. Xalifa oliyjanoblik bilan arabning “menga obiru qil” degan iltimosini bajo qildi.

Har qanday muloqot ma’lum bir pragmatik kontekst[2] ichida yuz beradi. Ushbu hikoyatdagi kontekst ikki qarama-qarshi qutb – ijtimoiy iyerarxiyaning (pog‘onaning) eng yuqori va eng quyi nuqtasida turuvchi lisoniy shaxslar muloqotiga qurilgan. Shoh (Xalifa Horun ar-Rashid) – mutloq hokimiyat egasi va cheksiz boylik timsoli. Arab – sahroda, muhtojlikdagi, dunyo ko‘rmagan, sodda va g‘arib inson. Matnda arabning dunyoqarashi chegarasi uning yashash muhiti bilan belgilanganligi lisoniy vositalar orqali ko‘rsatiladi. U sahroda bir ko‘lmak

[1] Pragmalingvistika (Lisoniy pragmatika) – tilshunoslikning til birliklarining muloqot jarayonida, ma’lum sharoit va kontekstda so‘zlovchi hamda tinglovchi munosabatlarida namoyon bo‘ladigan xususiyatlarini o‘rganuvchi sohasi

[2] Pragmatik kontekst – nutq so‘zlanayotgan muhit, vaqt, makon va muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy, madaniy, psixologik holatlari yig‘indisi

suv topadi va uni hayotida daryo ko‘rmagani bois dunyodagi eng oliy ne’mat – muqaddas “Zamzam”ga, hatto tiriklik suvi – “obi hayvon”ga qiyoslaydi:

*Ne suv, bir ko‘lmake, ko‘lmakka loyiq,*
*Ko‘rubon tutti ul Zamzamqa foyiq. [1,191]*

Arabning ushbu suvni shohga olib borish haqidagi ichki o‘y-xayollari avtonutq (o‘z-o‘ziga murojaat) shaklidagi pragmatik aktni yuzaga keltiradi.

Arab xalifa huzuriga yetib kelganda o‘z niyatini bayon etish uchun muayyan nutqiy akt[3] tizimini ishga soladi. Uning xalifaga murojaati yuksak darajadagi samimiylik va ekspressivlikka ega:

*Ki: “Shoho, men arabmen barda to‘zgon,*
*Tikon birlan muhabbattin dam urgon”. [1,191]*

Ushbu baytlarda arab o‘zining ijtimoiy holatini ochiq tan oladi (“tikon birlan muhabbattin dam urgon”). Pragmatik jihatdan ushbu nutqning illokutiv maqsadi[4]– tinglovchida dabdabali rasmiyatchilik emas, balki beg‘ubor to‘g‘rilik orqali ishonch uyg‘otishdir. Davomida u o‘z harakatining sababini tasdiq (asertiv) akti orqali tushuntiradi:

*Tilab bir pora yomg‘ur suyi toptim,*
*Zulolidin tama’ og‘zini yoptim.*
*O‘zum ichmay sanga kelturdum oni,*
*Ki ko‘rdum sanda sultonlar nishoni. [1,192]*

Bu yerda eng muhim pragmatik belgi – “O‘zum ichmay sanga kelturdum” ifodasidir. Arab o‘z tushunchasida mavjud bo‘lgan eng oliy qadriyatni shohga iltifot qilmoqda. Uning nutqida hech qanday ta’magirlik yoki yolg‘on madh (maqtov) yo‘q.

Pragmatik muloqot nazariyasida tinglovchining reaksiyasi nutqning muvaffaqiyatini belgilaydi. Arabning sodda so‘zlarini eshitgan xalifaning harakati muloqot tizimidagi ajoyib burilishdir:

*Tabassum qildi chun eshitdi Horun,*
*Rioyat birlan oni qildi Qorun.*
*Buyurdikim birovga: “Oni qoting,*
*Idishin to‘ldurub yarmoq uzoting”.*

Xalifaning nutqiy bo‘lmagan (noverbal) harakati – “tabassum qildi” – bu kontekstda kamsitish emas, balki vaziyatni to‘g‘ri anglash (dekodlashtirish) belgisidir. Xalifa muloqotdagi saxiylik va hamdardlik maksimasi[5]ga amal qiladi. U arabning keltirgan suvi aslida ko‘lmak ekanligini bilsa-da, uning ko‘nglidagi niyatining buyukligiga baho beradi va uning idishini oltin-kumushga (“yarmoq”) to‘ldirishni buyuradi. Bu yerda arab nutqining perlokutiv effekti[6] to‘la amalga oshdi: tinglovchi (xalifa) so‘zlovchining niyatiga muvofiq harakat qildi.

Xalifa Horun ar-Rashid arabga oltinlarni berib, uni orqaga qaytarishni va aslo Dajla daryosi bo‘yiga yo‘latmaslikni buyuradi. Bu harakatning implikaturasi[7] shundaki, agar sahroyi arab Bog‘dodning haybatli va to‘lib oqayotgan Dajla daryosini ko‘rib qolsa, o‘zining olib kelgan bir ko‘za suvidan uyalib, o‘zini haqoratlangan his qiladi, insoniy g‘ururi sinadi. Xalifa nafaqat

[3] Nutqiy akt – til yordamida amalga oshiriladigan maqsadli harakat (masalan: ma’lumot berish, buyruq berish, minnatdorchilik bildirish)
[4] Illokutiv maqsad – so‘zlovchining o‘z gapi orqali erishmoqchi bo‘lgan asl, yashirin niyati
[5] Hamdardlik va saxiylik maksimasi – muloqot davomida suhbatdoshning manfaatini o‘zinikidan ustun qo‘yish, uning ruhiyatini tushunish va unga qulaylik yaratishni talab qiluvchi pragmatik odob qoidasi
[6] Perlokutiv effekt – aytilgan nutqning tinglovchining xulq-atvori, his-tuyg‘ulari va harakatiga o‘tkazgan yakuniy ta’siri va natijasi
[7] Implikatura – to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytilmagan, ammo matn zamirida, kontekst yordamida anglashiladigan yashirin ma’no, tagma’no

unga moddiy boylik berdi, balki uning ruhiyatini, beg‘ubor dunyoqarashini asrab qoldi. Bu lisoniy matn zamiridagi eng oliy insonparvarlikdir.

Yusuf Amiriy ushbu hikoyatning eng yuqori falsafiy-pragmatik nuqtasini quyidagi baytlarga joylaydi:

*Bu kun she’rim suvu men ul arabmen,*
*Zihi gustoxu go‘lu beadabmen. [1,192]*

Hikoyat oxirida Yusuf Amiriy to‘g‘ridan-to‘g‘ri kitobxonga va adabiy muhitga yuzlanadi. U o‘zini o‘sha sahroi arabga, o‘zining yozgan “Dahnoma” dostonini esa ko‘lmak suviga o‘xshatadi. Bu o‘rinda muallif tomonidan kamtarlik (modestlik) maksimasi[8] ongli ravishda qo‘llanilmoqda. Shohona asar yozgan shoirning o‘z ijodini “ko‘lmak suv” deyishi, o‘quvchi va munaqqidlar (tanqidchilar) tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy munosabatni oldindan yumshatish, ularda asarga nisbatan iliqlik va rag‘bat uyg‘otish maqsadini ko‘zlagan strategik pragmatik usuldir. N.Rahmonov buni shunday izohlaydi: “Bu hikoyat tasodifan emas, balki Boysung‘ur ta’rifidan so‘ng uni Horun ar-Rashid singari saxiy, insonparvar hukmdor sifatida ko‘rsatish uchun Yusuf Amiriy ataylab bergan”[2,213].

Yusuf Amiriyning “Dahnoma” asaridagi “Xalifa va arab hikoyati” matnining lingvopragmatik tahlili quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi: Matn shunchaki voqeaband hikoya bo‘lmay, balki XV asr turkiy nutq madaniyati va ijtimoiy aloqalarning lisoniy modeli vazifasini o‘taydi. Yusuf Amiriy hikoyat orqali lisoniy taktdan (odobdan) foydalanib, o‘z asarining adabiy muhitdagi o‘rnini mustahkamlash va o‘quvchiga kuchli estetik ta’sir o‘tkazish kabi o‘zining mualliflik pragmatik niyatini yuksak mahorat bilan amalga oshirgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. N.Rahmonov. O‘zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asarning birinchi yarmigacha) o‘quv qo‘llanma. – T.: Sano-standart, 2017. – 556 b.
2. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. 2 жилдлик. 2-жилд. Нашрга тайёрловчи Раҳмонов Н. – Т.: Фан, 2007. – 319 б.
3. A.Ko‘chiboyev. Matn pragmatikasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Samarqand, 2016, 158 b.

[8] Kamtarlik (Modestlik) maksimasi – muloqotda o‘ziga beriladigan bahoni, o‘z yutuqlarini kamtarona ko‘rsatish orqali suhbatdoshda ijobiy taassurot qoldirish usuli